**Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi**
**Axborot-bibliografiya bo‘limi**



**O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni, jamoat arbobi Abdulla Oripov (1941-2016) tavalludining 80 yilligi munosabati bilan “She’riyatga baxshida umr” nomli**

# TAVSIYAVIY RO‘YXAT

**Farg‘ona – 2021**

# O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov
# (1941-2016)



O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining laureati, Kaliforniya (AQSH) Fan, Ta’lim, Sanoat va San’at xalqaro akademiyasining haqiqiy a’zosidir. Mustaqilligimizning yetti yilligida unga birinchilardan bo‘lib “O‘zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvon berildi. 2007 yili Abdulla Oripov Jahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan umumjahon madaniyatiga o‘zining ijodiy hissasini qo‘shganligi uchun oltin medal bilan taqdirlangan. Italiya yulduzlari nomli umumjahon faxriy yorliq bilan 2015 yilda taqdirlangan. Abdulla Oripovga ushbu faxriy yorliqni Italiya Prezidenti Serjo Matarelli taklifiga ko‘ra topshirilgan.

Abdulla Oripov - noyob iste’dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she’riyati asoslarini tashkil etadi. O‘zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati katta o‘rin tutadi.

O‘zbekiston xalq shoiri, taniqli jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941 yili Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida dunyoga keldi. O‘rta maktabni 1958 yili oltin medal bilan tugatgach, Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limiga kirib, uni 1963 yili muvaffaqiyat bilan bitirdi.

1968 yildan buyon turli nashriyotlarda muharrir, Yozuvchilar uyushmasida kotib vazifalarida xizmat qilib keldi. Mualliflar huquqini himoya qilish agentligining raisi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi lavozimlarida ishlagan.

Abdulla Oripovning ijodi talabalik yillarida boshlangan bo‘lib, uning birinchi she’rlar to‘plami “Mitti yulduz” 1965 yili chop etilgan. Keyin shoirning “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1967), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O‘zbekiston”, “Qasida” (1972), “Xotirot” (1974), “Yurtim shamoli” (1974), “Hayrat” (1979), “Najot qal’asi” (1981), “Yillar armoni” (1983) she’riy to‘plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to‘plamlarga kirgan she’rlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, ularda shoirning she’rdan-she’rga, to‘plamdan-to‘plamga, yildan-yilga o‘sib, ijodi barkamollashib borganligiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, 70-yillardan keyingi asarlarida hayot va inson, jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy mushohadalarining tobora chuqurlashib borayotganligi seziladi. Kuchli ehtirosli tuyg‘ular ularda o‘zining yuksak talqinini topib boradi. Bu, bora-bora teran fikr bilan yuksak badiiylikning omuxtasiga aylanib, shoirning ijodiy kamolotga erishganidan darak beradi.

Bunga Abdulla Oripovning “Saylanma” (1996) to‘plamini o‘qib amin bo‘lishimiz mumkin. Ayniqsa, istiqlol g‘oyasi, el-yurt mustaqilligi, ona Vatanni ozod va obod ko‘rish istagi satrdan-satrga parvarish topib, ajib bir porloqlik hosil qiladi. Shoirning

“Men nechun sevaman O‘zbekistonni”, “O‘zbekistonda kuz”, “Kuz” kabi 60-yillarda yozilgan she’rlaridayoq istiqlol nurlari jilva qilgandek bo‘ladi. Xullas, Vatan va xalqqa mehr-muhabbat, tabiatni sevish, ardoqlash, imonli, vijdonli insonlarga madhiyalar o‘qish, goh yig‘lab, goh quvonib kuylash shoir tuyg‘ulari ummonini tashkil etadi.

Abdulla Oripov ijodining keyingi bosqichi yana ham tuyg‘ularga boy, fayzli va serbarakadir. Jumladan, “Haj daftari” (1992) turkumiga kirgan she’rlarida endi shoir ma’naviyatimiz manbalarini kashf etish yo‘lidan boradi. Qur’oni Karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma’nolar izlaydi va topadi. U dostonnavis va dramaturg sifatida ham ma’lum va mashhurdir. Xususan, “Jannatga yo‘l” dostoni va “Sohibqiron” (1996) she’riy dramasi shoirga katta shuhrat keltirgan asarlardir.

Abdulla Oripov iste’dodli tarjimon sifatida Dantening “Ilohiy komediya” asarini o‘zbek tiliga yuksak mahorat bilan o‘girgan. Nekrasov, L. Ukrainka, Shevchenko, R. Hamzatov, Q. Quliyev asarlarini ham ona tiliga tarjima qilgan. U O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi hamdir. 2000-2001 yillarda Abdulla Oripov asarlarining to‘rt jildi nashr qilinib, keng kitobxonlar ommasiga manzur bo‘ldi.

Ijodkorning she’riy majmualari qator xorijiy tillarga tarjima qilingan va alohida kitob holida nashr etilgan. Abdulla Oripov - noyob iste’dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she’riyati asoslarini tashkil etadi. O‘zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati katta o‘rin tutadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining laureati, Kaliforniya (AQSH) Fan, Ta’lim, Sanoat va San’at xalqaro akademiyasining haqiqiy a’zosidir. Mustaqilligimizning yetti yilligida unga birinchilardan bo‘lib “O‘zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvon berildi. Abdulla Oripov 2016 yil 5 noyabrda 75 yoshida vafot etdi.

Axborot kutubxona markazi tomonidan O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni, jamoat arbobi Abdulla Oripov (1941-2016) tavalludining 80 yilligi munosabati bilan “She’riyatga baxshida umr” nomli
bibliografik qo‘llanma tayyorlandi. Ushbu tavsiyaviy ro‘yxatdan o‘qituvchilar, kutubxonachilar, talabalar va Abdulla Oripov hayoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

**O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni, jamoat arbobi Abdulla Oripov hayoti va faolyatining asosiy sanalari.**

**1941 yil 21 martda** –Qashqadaryo viloyatining Koson tumani Neko‘z qishlog‘ida tug‘ilgan.

**1963 yil** – ToshDU ( hozirgi O‘zbekiston Milliy universitet)ning jurnalistika fakultetini tugatgan.

**1965 yil** – “Mitti yulduz” ilk she’riy to‘plami nashr etilgan.

**1963-1969**–“Yosh gvardiya” nashriyotida muharrir.

**1969-1974** – G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida muharrir.

**1974-1976** –“Sharq yulduzi” jurnalida adabiy xodim, bo‘lim mudiri.

**1976-1982** – O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi.

**1983-1985** – “Gulxan” jurnalida muharrir.

**1983 yil** – Hamza nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati.

**1989 yil** – O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agayentligi raisi.

**1990 yil** – O‘zbekiston xalq shoiri.

**1990 yil** – O‘zbekiston Oliy Kengashi deputati.

**1992 yil** – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati.

**1995 yil** – O‘zbekiston Oliy Majlisi deputati.

**1996 yil** – O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi.

**1997 yil** –“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Bosh tahrir hay’ati a’zosi.

**1998 yil** – “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berildi.

**2016 yil 5 noyabrda** – 75 yoshida vafot etgan.

**Abdulla Oripov kitoblari:**

**1980**

1. Oripov, A. Najot qal’asi / A. Oripov. Dramatik doston: Tarjima : She’rlar / A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – 280 b.

Ushbu kitobda Abdulla Oripovning najot qal’asi nomli she’rlar, dramatik doston, tarjimalari berilgan.

**1981**

2. Oripov, A. Surat va siyrat : Doston va she’rlar / A. Oripov. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981. – 152 b.

Ushbu kitobda Abdulla Oripovning doston va she’rlari berilgan.

**1987**

3. Oripov, A. Yillar armoni : She’rlar va dostonlar / A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – 592 b.

Ushbu kitobda Abdulla Oripovning she’rlar va dostonlari berilgan.

**1988**

4. Oripov, A. Ehtiyoj farzandi : Adabiy maqolalar, suhbatlar, badiiy publisistika / A. Oripov; Muharr. M. Mirzayev. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1988 (Mehnat). – 224 b.

Ushbu kitobda yozuvchining adabiy maqolalari, suhbatlari xamda badiiy publisistikasi berilgan. Kitob keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

**1989**

5. Oripov, A. Ishonch ko‘priklari / A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 240 b.

Ushbu kitobda Abdulla Oripovning she’rlari jamlangan.

**1993**

6. Oripov, A. Xikmat sadolari : She’rlar / A. Oripov. – Toshkent: Fan, 1993. – 104 b.

Ushbu to‘plamga Abdulla Oripovning keyingi yillarda yozilgan e’tiqod ifodasi bo‘lmish falsafiy ruhdagi she’rlari jamlangan.

**1995**

7. Oripov, A. Dunyo : She’rlar / A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. – 56 b.

Abdulla Oripovning ushbu kitobchasida ona-yurt haqidagi she’rlari berilgan.

**1996**

8. Oripov, A. Ibodat : She’rlar, she’riy dramadan parcha / A. Oripov; Muharr. F. Kamolova. – Toshkent: Yozuvchi, 1996 (Matbuot). – 64 b.

Shoirning ushbu yangi to‘plami botin sirlari, zohirdagi olam talvasalari, inson va zamon mushohadalari haqida. She’rlarning xikmatona yo‘sini, zalvorli oxangi nafis munosabat uyg‘otadi.

**2000**

9. Oripov, A. Tanlangan asarlar : To‘rt jildlik / Abdulla Oripov. T.1 She’rlar va dostonlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 432 b.

Ushbu she’riy to‘plamda shoirning teran falsafalik, sharqona donishmandlik, Vatanning shonli o‘tmishi va bugungi taqdiri, xalq qismati va kelajagi uchun bir komil fuqarolarcha kuyunchakligi, hayotdagi salbiy ko‘rinishlarga murosasiz diqqatini o‘ziga oxanrabodek tortib turadi.

**2001**

10. Oripov, A. Tanlangan asarlar : T.3 Tarjimalar / A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – 384 b.

Ushbu kitobda shoirning jahon mumtoz she’riyati durdonalaridan qilingan tarjimalari kiritilgan.

11.Oripov A. Tanlangan asarlar : T.4  Kinosenariy, maqolalar, suhbatlar, xotiralar, qaydlar / A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – 384 b.

Shoirning ushbu kitobiga kinosenariy, adabiy-publisistik maqolalar, suhbatlar, adabiy qaydlar va xotiralari kiritilgan.

22. Oripov, A. Tanlangan asarlar : To‘rt jildlik / A. Oripov T.4 Maqolalar, suhbatlar, xotiralar, qaydlar / Muharr. Jonbek Subxon. – Toshkent: Adabiyot, 2001 (Matbuot). – 394 b.

Tanlangan asarlarning to‘rtinchi jildiga kinosenariy, adabiy-publisistik maqolalar, suhbatlar, adabiy qaydlar va xotiralar kiritilgan.

23. Oripov, A. Bir qarasam : She’rlar / A. Oripov; Muharr. T. Soatova. – Toshkent: Akademiya , 2001. – 48 b.

Ushbu kitobchada Abdulla Oripovning she’rlar to‘plami berilgan.

24. Oripov, A. Tanlangan asarlar to‘rt jildlik / A. Oripov T.2 She’rlar va dostonlar / Muharr. J. Subxon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – 492 b.

Abdulla Oripovning ikkinchi jildida she’rlar va dostonlar berilgan.

25. Oripov, A. Tanlangan asarlar to‘rt jildlik / A. Oripov T.3 Tarjimalar / Muharr. J. Subxon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – 379 b.

Ushbu Abdulla Oripovning Tanlangan asarlarining uchinchi jildiga jahon mumtoz she’riyati durdonalaridan qilingan tarjimalar kiritilgan.

**2002**

26. Oripov, A. Mitti yulduz : / A. Oripov; Muharr. M. Mansurov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 40 b.

Abdulla Oripovning “Onamga xat”, “Munojotni tinglab”, “Tilla baliqcha” kabi she’rlarini o‘qimagan o‘zbek topilmasa kerak.

**2003**

27. Oripov, A. Shoir yuragi : She'rlar / A. Oripov; Muharr. U. Qo'chqor. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – 112 b.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalk shoiri Abdulla Oripovning ushbu to'plamidan asosan keyingi yillarda yozilgan she'rlari o'rin oldi.

**2005**

28. Oripov, A. Adolat ko'zgusi : She'rlar, maqolalar, suhbatlar, tarjimalar / A. Oripov. – Toshkent: Adolat, 2005 (Matbaa). – 399 b.

Adolat ko'zgusi: She'rlar, maqolalar, suhbatlar, tarjimalar.

**2006**

29. Oripov, A. Birinchi muhabbatim : She'rlar / A. Oripov; Muharr. T. Hayit, Tuz. A. Tangriyev. – Toshkent: O'zbekistan, 2006. – 96 b.

O'z hayotida sevib-sevilmagan, muhabbat atalmish ajib bog'dan gul uzmagan inson bo'lmasa kerak. Bu boqiy va muqaddas tuyg'u shoiru yozuvchilarimiz, baxshiyu rassomlarimiz ijodining doimo bosh mavzusi bo'lib kelgan.

**2007**

30. Oripov, A. Talosh pallasi : She'rlar / A. Oripov; Muharr. U. Qo'chqorov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – 104 b.

Bu dunyo - mahobatli kurashlar dunyosidir. Azal-azaldan tun va kun, ezgulik va yovuzlik, nur va zulmatning muttasil jang qilib kelishi va bu jang doimiy davom etishi qadimiy muqaddas bitiklarda xam uqtirilgan.

**2009**

31. Oripov, A. Menga xush xabar ayt / A. Oripov. – Toshkent: Toshkent davlat universiteti, 2009. – 125 b.

Ushbu kitobchada Abdulla Oripovning "Menga xush xabar ayt" nomli she'rlari kiritilgan.

32. Oripov, A. Menga xush xabar ayt : She’rlar / A. Oripov; Muharr. U. Qo‘chqorov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – 128 b.

Mutafakkir shoir hayot va mangulik, iymon, diyonat va ezgulik singari mavzularda qalam suradi.

**2012**

33. Oripov, A. Ranglar va ohanglar : She’rlar va dostonlar / A. Oripov; Muharr. X. Abdunazar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012. – 152 b.

Abdulla Oripovning ushbu kitobida She’rlar va dostonlar berilgan.

**2014**

34. Oripov, A. Umr manzillari : She’rlar, g‘azallar / A. Oripov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2014. – 152 b.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning yangi to‘plamida keyingi yillarda turli vaziyatlarda, sayohatlar va safarlarda yozilgan she’rlari va g‘azallaridan iborat.

**2015**

35. Oripov, A. Yangi she’rlar / A. Oripov. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 152 b.

Hozirgi zamon o‘zbek she’riyatining yirik siymolaridan biri Abdulla Oripovning ushbu to‘plami keyingi yillarda yozilgan she’rlardan jamlandi. Inson qalbi tarjimoni, faylasuf va vatanparvar shoir bilan yangi uchrashuv she’rxonlarni xushnud etadi degan umiddamiz.

**2017**

36. Oripov, A. Everest va ummon : She’rlar / A. Oripov; Muharr. A. Nazar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 392 b.

Ushbu to‘plamda ozod va pokiza ko‘ngilning goh mayin, goh nolakor, goh o‘tli, goh mungli tuyg‘ular musavviri O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning so‘nggi yillarda va vafotidan oldin yozilgan she’rlari jamlangan.

**2019**

37. Oripov, A. Tanlangan asarlar / A. Oripov. – Toshkent: Sharq NMAK , 2019. – 784 b.

**Abdulla Oripov haqidagi kitoblar:**

**2000**

38. Qo‘shjonov, M. Abdulla Oripov / M. Qo‘shjonov, S. Meli; Muharr. R. Qobulova. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000 (Matbuot). – 136 b.

Qator she’rlar va dostonlar ijodkor mahorati nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Shoirning o‘tmishdagi asl bahosini olmagan asarlari qayta o‘rganiladi. Kitob keng kitobxon o‘quvchilar ommasiga adabiyot muxlislariga mo‘ljallangan.

**Abdulla Oripov muharrirlik qilgan kitoblar:**

**1968**

39. Amudaryo ilxomlari / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968. – 191 b.

Ushbu kitobda Qoraqalpoq xalq shoirlarining she’rlari berilgan.

**1969**

40. Ramz Bobojon. Senga sevgilim : She’r, ballada, poemalar / Ramz Bobojon; Muharr. A. Oripov. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1969. – 543 b.

Ushbu kitobda Ramz Bobojonning “Senga sevgilim” nomli she’riy to‘plami jamlangan.

**1970**

41. Turob To‘la. Tanlangan asarlar : Ikki tomlik / Turob To‘la T.1 She’rlar, qo‘shiqlar, balladalar, dostonlar / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970. – 470 b.

Ushbu kitobda Turob To‘laning ikki tomlik asarlar to‘plamining ushbu birinchi tomiga she’riy asarlari kiritilgan.

**1971**

42. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Asarlar : Ikki tomlik / Hamza Hakimzoda Niyoziy T.2 Pyesalar / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. – 392 b.

43. Zaytun novdasi : 20 asr arab poeziyasi / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. – 168 b.

Ushbu kitobda “Zaytun novdasi” nomli 20-asr arab poeziyasi berilgan.

44. Mirmuhsin. Tanlangan asarlar to‘plami : Uch tomlik / Mirmuhsin T.2 Dostonlar / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. – 264 b.

Ushbu tanlangan asarlar to‘plamida yozuvchining “Usta G‘iyos”, “Qadrdonlar”, “Kamar”, “Ziyod va Adiba” nomli dostonlari berilgan. Asar keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

45. Asqad Muxtor. Quyosh belanchagi : Poema va she’rlar / Asqad Muxtor; Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971 (Poligrafkombinat). – 96 b.

Asqad Muxtorning “Quyosh belanchagi” kitobida poema va she’rlar berilgan. Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**1972**

46. G‘afur G‘ulom. Asarlar o‘n tomlik / G‘afur G‘ulom T.2 She’rlar : 1954-1966 / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – 431 b.

Ushbu uchinchi jildiga G‘afur G‘ulomning 1954-1966 yillarda yozilgan she’rlari kiritilgan.

**1973**

47. G‘afur G‘ulom. Asarlar o‘n tomlik / G‘afur G‘ulom T.4 Dostonlar, Manzumalar, Bolalar uchun she’rlar / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. – 370 b.

"To‘y", "Ikki vasiqa", "Suv va nur" kabi doston va manzumalar, bolalarga atab yozilgan she'rlar ushbu tomning asosiy mundarijasini tashkil etadi.

48. Shukrullo. Tanlangan asarlar : Ikki tomlik / Shukrullo T.1 She'rlar va dostonlar / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. – 338 b.

Ushbu tanlangan asarda yozuvchining she'rlari va dostonlari kiritilgan. Asar keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan.

**1977**

49. G‘afur G‘ulom. Asarlar o‘n tomlik / G‘afur G‘ulom T.9 Tarjimalar / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. – 390 b.

Akademik shoirimiz G‘afur G‘ulomning o‘n tomlik "Asarlar"ining bu to‘qqizinchi tomiga uning jahon adabiyoti va tarjimalaridan namunalar kiritildi.

**1978**

50. G‘afur G‘ulom. Asarlar o‘n tomlik / G‘afur G‘ulom T.10 Nutqlar, maktublar, she'rlar / Muharr. A. Oripov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 262 b.

Akademik G‘afur G‘ulom "Asarlar"ining ushbu oxirgi 10-tomiga nutqlar, maktublar va yangi she'rlari kiritildi.

**Abdulla Oripovning matbuot nashrlarida chop etilgan maqola va she'rlari:**

**Jurnallar:**

**2003**

51. Oripov, A. O‘zbekning o‘z shoiri : [maqola 20 asrning zabardast shoirlaridan biri G‘afur G‘ulomga bag‘ishlangan] / A. Oripov // Til va adabiyot ta'limi. – 2003. – № 2. – B. 4-10.

**2007**

52. Oripov, A. Qoraqalpog‘im : [she’r] / A. Oripov // Sharq yulduzi. – 2007. – № 5. – B. 62.

**2008**

53. Oripov, A. Dorilfununga : [O‘zbekiston Milliy universitiyetning 90 yilligiga bag‘ishlangan she’r] / A. Oripov // Sharq yulduzi. – 2008. – № 4. – B. 9.

**2011**

54. Oripov, A. Yigirma yil : [she’r] / A. Oripov // Huquq va burch. – 2011. – № 8/9. – B. 66.

55. Oripov, A. Yoshlar bayroqdor bo‘lsin! : [O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bilan suhbat / suhbatdosh: S. Unar] / A. Oripov // Yoshlik. – 2011. – № 4. – B. 1-5.

**2013**

56. Oripov, A. Ta’limiy va tarbiyaviy qadriyatlar - ilm va ma’rifat bulog‘i : [Maqola Sharq buyuk mutafakkirlarining ilmiy-merosi haqida. Ushbu maqoladan ota-onalar, o‘qituvchilar bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida foydalanishlari mumkin] / A. Oripov // Xalq ta’limi. – 2013. – № 6. – B. 126-133.

**2016**

57. Oripov, A. Unutilmas Mutal akamiz : [Maqola 20 asr o‘zbek musiqa madaniyati ravnaqiga katta hissa qo‘shgan atoqli kompozitor Mutal (Mutavakkil) Burxonov haqida] / A. Oripov // Tafakkur. – 2016. – № 2. – B. 44-47.

58. Oripov, A. Hayot haqiqatlari : [O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov o‘zi haqida so‘zlab bergan] / A. Oripov // 21 asr. – 2016. – № 48. – B. 10.

**2019**

59. Oripov, A. Muvashshah : [O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov tavalludining 90 yilligiga] / A. Oripov // Yoshlik. – 2019. – № 3. – B. 65.

60. Ibrohim Haqqul. Abdulla Oripov she’riyatida malomatiylik motivlari : / Ibrohim Haqqul // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2019. – № 3. – B. 3-9.

## Gazetalar:

### 2008

61. Oripov, A. Mangu tirik zot : [O‘zbek adabiyoti va adabiyotshunoslik ilmida o‘chmas iz qoldirgan ulkan shoir, mohir tarjimon Maqsud Shayhzoda haqida] / A. Oripov // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2008. – 21 noyab. – B. 1.

### 2009

62. Oripov, A. Istiqloli - abadiy, istiqboli – munavvar : [O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 18 yilligiga] / A. Oripov // Xalq so‘zi. – 2009. – 24 iyun. – B. 1-2.

63. Oripov, A. Sharq navosi : [she’r] / A. Oripov // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2009. – 3 yanv. – B. 1.

64. Oripov, A. Sadoqatli do‘st edi : [O‘zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg ijodi haqida] / A. Oripov // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2009. – 16 okt. – B. 4.

65. Oripov, A. Maftunkor she’riyat : [betakror shoir Xamid Olimjon ijodi haqida] / A. Oripov // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2009. – 1 may. – B. 4.

66. Oripov, A. Muallimlarga : [she’r] / A. Oripov // Qalb sadosi. – 2009. – sent. – B. 14.

67. Oripov, A. O‘zbek tuni : [she’r] / A. Oripov // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2009. – 20 fevr. – B. 1

### 2010

68. Oripov, A. Ayol : [shye’r] / A. Oripov // Postda. – 2010. – 24 apr. – B. 8.

### 2011

69. Oripov A. Dovon va davron : [O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov bilan mamlakatimiz mustaqilligining shonli 20 yili davomida erishilgan yuksak muvaffaqiyatlar haqida suhbat / Suhbatni I. Sultonov va I. Abdiyev yozib oldilar] / A. Oripov // Xurriyat. – 2011. – 22 mart. – B. 12.

70. Oripov, A. Muallimlarga : [o‘qituvchi va murabbiylarga bag‘ishlangan she’r] / A. Oripov // Postda. – 2011. – 24 sent. – B. 1.

71. Oripov, A. Ozarbayjon : [she’r] / A. Oripov // Postda. – 2011. – 10 sent. – B. 1.

72. Oripov, A. Yigirma yil : [she’r] / A. Oripov // Postda. – 2011. – 20 avg. – B. 1.

73. Oripov, A. Tabiatning ishi : [she’r] / A. Oripov // Hamroh. – 2011. – 24 noyab. – B. 3.

74. Oripov, A. Qizlarga : [she’r] / A. Oripov // Zukko Zamondosh. – 2011. – 8 mart. – B. 1.

**2012**

75. Oripov, A. Burgut mag‘rur parvoz qiladi : [Qoraqalpoq yozuvchisi va o‘tkir publisist O‘rozboy Abdurahmonovning “Changalzor payg‘ambarining halokati” kitobidan joy olgan shu nomli esse va Busaga nomli roman haqida] / A. Oripov // Kitob dunyosi. – 2012. – 1 noyab. – B. 8.

76. Oripov, A. Tarixiy qurilishlar, buyuk bunyodkorliklar : [Farg‘onada Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va qurilish ishlari haqida] / A. Oripov // O‘zbekiston ovozi. – 2012. – 24 may. – B. 1, 3.

77. Oripov, A. Yigirma yil : [she’r] / A. Oripov // Qalb sadosi. – 2012. – yanv. – B. 4.

78. Oripov, A. Navro‘z : [she’r] / A. Oripov // Xalq so‘zi. – 2012. – 21 mart. – B. 4.

**2013**

79. Oripov, A. Saodat manzari : [Taniqli shoir Ismoil Mahmudning “Saodat manzari” kitobi haqida] / A. Oripov // Farg‘ona haqiqati. – 2013. – 16 fevr. – B. 3.

80. Oripov, A. Maydanak : [Maydanak observatoriyasiga bag‘ishlangan she’r] / A. Oripov // Xalq so‘zi. – 2013. – 22 iyun. – B. 4.

**2015**

81. Oripov, A. Hamjihatlik : [Oʻzbekiston Qahramoni, Oʻzbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripovning “Hamjihatlik” she’ri berilgan] / A. Oripov // Kitob dunyosi. – 2015. – 9 may. – B. 1.

82. Oripov, A. Ayol : [she’r] / A. Oripov // Kitob dunyosi. – 2015. – 6 may. – B. 1.

**2016**

83. Oripov, A. Buyuk bunyodkor : [Oʻzbekiston Qahramoni, Oʻzbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripovning Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov haqidagi xotiralari bayon qilingan va shoirning “Mangulik” nomli she’ri berilgan] / A. Oripov // Oʻzbekiston adabiyoti va san’ati. – 2016. – № 39. – B. 2.

**2017**

84. Oripov, A. Sharof Rashidov xotirasiga : [she’r] / A. Oripov // Qalb sadosi. – 2017. – № 26. – B. 1.

**2019**

85. Oripov, A. Ikki boʻsa : [she’r] / A. Oripov // Oʻzbekiston adabiyoti va san’ati. – 2019. – 4 okt. – B. 3.

**2020**

86. Oripov, A. Men nechun sevaman Oʻzbekistonni : [she’r] / A. Oripov // Xalq soʻzi. – 2020. – 21 mart. – B. 3.

87. Oripov, A. Qonli koʻylak : [she’r] / A. Oripov // Oʻzbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. – 8 may. – B. 4.

88. Oripov, A. Tuprogʻinga singardim Vatan!... : [she’rlar] / A. Oripov // Oʻzbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. – 21 mart. – B. 1-3. Mundarija: Vatan; Jayron qoʻshigʻi; Maktub; Oʻlkam; Yurt sevgisi; Oqshom; Ona tuproq; Oy; Qor; Huddi oʻzing; Kechir planeta.

89. Oripov, A. Uvada kamzulda billur tugmaday, Bulutlar ortida boqadi yulduz : [she’r] / A. Oripov // Kitob dunyosi. – 2020. – 27 may. – B. 3.

**Abdulla Oripov haqida matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalar:**

**Jurnallar:**

**2008**

90. Jabborov, I. Abdulla Oripov she’rlarida tarix tuyg‘usi : / I. Jabborov // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2008. – № 2. – B. 60.

**2011**

91. Karimov, N. Poetik tafakkur yolqinlari : [Abdulla Oripovning lirik durdonalari hozirgi jahon she’riyati xazinasidan o‘rin olishga munosibdir] / N. Karimov // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2011. – № 2. – B. 38-43.

92. Ahmedova, F. Abdulla Oripov ijodi : [9-sinf uchun dars ishlanmasi] / F. Ahmedova // Til va adabiyot ta’limi. – 2011. – № 8. – B. 39-46.

93. Nazirov, B. Zamon va Abdulla Oripov she’riyati : [Abdulla Oripov ijodi haqida] / B. Nazirov // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2011. – № 2. – B. 35-38.

**2013**

94. Jabborov, I. Abdulla Oripov ijodida tarixiy mavzu : [Abdulla Oripovning badiiy-estetik izlanishlarida xalqimizning shonli tarixini, buyuk ajdodlarimiz hayoti va taqdirini o‘rganish alohida sahifalarni tashkil etadi. Maqola shoirning tarixga munosabatini ifodalagan she’rlari, dostonlari, drama va maqolalari haqida] / I. Jabborov // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2013. – № 3. – B. 66-68.

**2014**

95. Ashurova, G. Abdulla Oripov ijodida Vatan mavzusi : [Maqola Abdulla Oripovning Vatan mavzuidagi she’rlari va ularning rang - barang talqinlari tahliliga bag‘ishlangan] / G. Ashurova // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2014. – № 6. – B. 53-58.

**2015**

96. Tursun, A. Adabiyotdagi yorqin tovush : [Muallif Abdulla Oripov va Mirtemir she’rlari haqida fikr bildirgan] / A. Tursun // Yoshlik. – 2015. – № 4. – B. 46-47.

**2016**

97. Abdurahmonova, U. Mangu yorug‘ maskanim manim : [Abdulla Oripov hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha dars ishlanmasi] / U. Abdurahmonova // Til va adabiyot ta’limi. – 2016. – № 12. – B. 3-5.

98. Usmon Azim. Marsiya : [Sahifadan O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov haqidagi she’rlar joy olgan] / Usmon Azim // Yoshlik. – 2016. – № 11. – B. 16-17.

99. Normatov, U. Vatanning otashin kuychisi : [Maqola ulkan zamondosh shoirimiz Abdulla Oripov tavalludining 75 yilligiga bag‘ishlangan] / U. Normatov // Til va adabiyot ta’limi. – 2016. – № 2. – B. 8-11.

100. Normatov, U. El-yurtga, she’riyatga bahshida umr : [Filologiya fanlari doktori Umarali Normatov buyuk shoir Abdulla Oripov haqidagi xotiralarini bayon qilgan] / U. Normatov // Yoshlik. – 2016. – № 11. – B. 9-15.

**2017**

101. Rizayev, Sh. Abdulla Oripov - shoir-tarjimon : [Sahifada Abdulla Oripov tarjimalari haqida va tarjimalaridan namunalar berilgan] / Sh. Rizayev, O. Safarov // Jahon adabiyoti. – 2017. – № 3. – B. 163-167.

102. Yarmatova, X. “Ko‘ngil darchasin ochib qo‘ying lang...” : [O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov rafiqasi Xanifa Yarmatova bilan suhbat] / X. Yarmatova // Til va adabiyot ta’limi. – 2017. – № 3. – B. 6-9.

**2018**

103. Murod A. Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi : / A. Murod // Yoshlik. – 2018. – № 3. – B. 4-5.

104. Erkayev, A. Abdulla Oripov fenomeni : [esse] / A. Erkayev // Sharq yulduzi. – 2018. – № 4. – B. 122-145.

**Gazetalar:**

**2011**

105. Saidov, A. Bashariy qadriyatlar kashshofi : [buyuk italyan shoiri, olim va siyosatchi Dante Aligьyeri bilan O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning ijod va hayot yo‘liga xos, kutilmagan darajada g‘aroyib, ayni chog‘da, o‘ta tabiiy o‘xshashliklar mavjudligi haqida] / A. Saidov // Milliy tiklanish. – 2011. – 23 mart. – B. 5.

106. Sirojiddin Sayyid. She’r va umr hikmati : [O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov 70 yoshda] / Sirojiddin Sayyid // O‘zbekiston ovozi. – 2011. – № 38. – B. 4.

107. Rasulov, A. Men xam bir o‘g‘lingman... : [O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi haqida] / A. Rasulov // Xalq so‘zi. – 2011. – 25 mart. – B. 4.

**2012**

108. Bobojonov, A. Mehnat va ijod qo‘shig‘i yangraganda : [O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov viloyatimizga tashrif buyurib, quruvchilar va yoshlar bilan uchrashdi] / A. Bobojonov // Farg‘ona haqiqati. – 2012. – 11 apr. – B. 1-2.

109. Xojiyeva, Sh. She’rning sehrli qudrati : [zamonaviy she’riyatimizning mashhur vakili, zabardast shoir Abdulla Oripov o‘zining eng yangi nazmiy asarlari, oxorli badiiy kashfiyotlari bilan bugungi kunda adabiyotsevarlarni xayratga solib kelmoqda] / Sh. Xojiyeva // Milliy tiklanish. – 2012. – 25 yanv. – B. 5.

110. Abdullayev, M. Xur fikr, ozod ruh : [Abdulla Oripov she’riyatida Vatan suvrati] / M. Abdullayev // Xurriyat. – 2012. – 22 mart. – B. 11.

111. Imomxo‘jayev, I. Ezgulik nurini ulashib : [xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripovning “Ezgulik” nomli kitobi haqida] / I. Imomxo‘jayev // Postda. – 2012. – № 26. – B. 8.

112. Ko‘chimov, A. Men shoirman istasangiz shu... : [O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ishtirok etgan gurunglar kiritilgan] / A. Ko‘chimov // Farg`ona kitob olami. – 2018. – № 11. – B. 3.

**2016**

113. Nazarov, B. Men nechun sevaman O‘zbekistonni? : [taniqli adabiyotshunos olim Baxtiyor Nazarov bilan suhbat / Suhbatdosh A. Umirova] / B. Nazarov; A. Umirova // Xurriyat. – 2016. – № 48. – B. 6-7.

114. O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov : Nekrolog [O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri, atoqli jamoat arbobi Abdulla Oripov 75 yoshida vafot etdi] // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2016. – № 46. – B. 2.

115. Sirojiddin Sayyid. Ikki ustoz xotirasi : [sahifada Sirojiddin Sayyidning Erkin Vohidov va Abdulla Oripovga bag‘ishlangan she’rlari berilgan] / Sirojiddin Sayyid // O‘zbekiston ovozi. – 2016. – № 155. – B. 3.

**2019**

116. Ashurova, G. Buyuk ummondan bahralar : [21 mart O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri, atoqli jamoat arbobi Abdulla Oripov tavallud topgan kun] / G. Ashurova // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2019. – № 12. – B. 4.

117. Jabborov, N. Sog‘inch : [O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri, atoqli jamoat arbobi Abdulla Oripov tavallud topgan kunga bag‘ishlangan] / N. Jabborov // Xalq so‘zi. – 2019. – № 53. – B. 4.

118. Mustafayeva, H. Ezgulikning umri boqiy : / H. Mustafayeva // Kitob dunyosi. – 2019. – 13 mart. – B. 2.

119. Abdurahmonov, Q. Millat shoiri yodi : [Prezidentimiz tashabbuslari bilan Qarshi shahrida Abdulla Oripov nomiga ihtisoslashtirilgan maktab internat ochildi] / Q. Abdurahmonov // Kitob dunyosi. – 2019. – 12 iyun. – B. 2.

**2020**

120. G‘afurova, I. Uch mahvash siymolar jamoli : [O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haqida] / I. G‘afurova // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. – 8 dek. – B. 2.

121. To‘ychiyeva, S. Shoir qalbi sadolari : [O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining keng nishonlash to‘g‘risida] / S. To‘ychiyeva // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. – 11 dek. – B. 1.

122. Nikolay Ilin. Yaxshilarning mehri unutilmas : [O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining keng nishonlash to‘g‘risida] / Nikolay Ilin // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2020. – 18 dek. – B. 1.

## Рус тилида:

### 2011

123. Жабборов, Н. Завораживающая сила поэзии : [о народном поэте Герои Узбекистана Абдулла Орипове] / Н. Жабборов // Народное слово. – 2011. – 25 март. – С. 4.

### 2012

124. Бобожонов, А. Когда звучит песня труда и творчества : [Фергану посетили Герой Узбекистана, знаменитый поэт Абдулла Орипов и главный редактор газеты “Узбекистон овози” Сафар Остонов. Гости ознакомились с творчеством молодых ферганских поэтов и писателей] / А. Бобожонов // Ферганская правда. – 2012. – 12 апр. – С. 1-2.

### 2016

125. Герой Узбекистана Абдулла Арипов : Некролог [Узбекская литература и культура понесла тяжелую утрату. В возрасте 75 лет скончался Герой Узбекистана, народный поэт Узбекистана, видный общественный деятель Абдулла Арипов] // Народное слово. – 2016. – № 223. – С. 3.

### 2019

126. Тагаева, Д. Стихи поэта как откровение души : [в Карши широко отмечалась 78-я годовщина со дня рождения Героя Узбекистана народного поэта Абдуллы Орипова] / Д. Тагаева // Народное слово. – 2019. – № 60. – С. 3.

Tuzuvchi G. Valiyeva.